

## TIKUVCHILIK VA TOPONIMIKA

*Farg'ona viloyati Quva tuman kasb-hunar maktabi  
Tikuvchilik fanlari o'qituvchisi  
Fazliddinova Saidaxon Baxriddinovna*

**Annotatsiya:** maqolada tikuvchilikka oid terminlar, ularni kelib chiqish tarixi, vazifasi va ularni kelib chiqish tarixi haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Reglan, Chersterfild, Olster, Palmerston, Apash, Bananlar, Spenser, Norflok, Zarif, Kardigan, Zinger, jakkard, Gobelen-aka-uka.

Shunday jihozlar va taomlar borki, uni eshitganingdayoq joy yoki kishi nomi yodingga tushadi.

Joy va insonlar nomi bilan bog'liq bo'lgan narsa va buyumlar kundalik hayotimizda ko'plab uchrab turadi. Bular mashaqqatli mehnat mahsuli hisoblanadi. Quyida ana shunday tikuvchilik sohasiga oid dalillarni keltirib o'tamiz.

Reglan-yengi reglan bichimli palto yoki plashch. Yeng bichimiga Qirim urush vaqtida (1853-1856-y) qo'li yaralangan ingliz generalining nomi berilgan. Reglan yangli kiyimlar XIX asr oxiriga kelib yevropa kiyimlarida ko'rina boshladi. Angliyaning generali Lord Reglan o'z armiyasi askarlarining kiyimlarida shu yengni qo'llagan. Avval erkaklar kiyimida ko'p uchraydigan yeng keyinchalik ayollar kiyimiga ham yarashgan holda tez kirib keldi.

Olster-dag'al junli suknodan tayyorlangan keng, uzun ikki bortli, kapyushon va belbog'li palto. Unga Irlandiyadagi Olster shahrining nomi berilgan. Chunki u yerda dastavvaljun gazlamasi-bobrik ishlab chiqarilgan va undan shunday paltolartirilgan.

Palmerston-ort bo'lagi belgacha yopishib turadigan erkakalar paltosi. Unga Angliya bosh vaziri va tashqi ishlar vaziri lord vikont Palmerstonning (1784-1865 y) nomi berilgan.

Chersterfild- odatda qora rangli, dixoba yoqali qiqqma cho'ntakli va yashirin taqilmali, uzun erkaklar paltosi. Unga graf Chesterfildning (1694-1773-y.y) nomi berilgan Bu ustki kiyimning klassi shaklidir.

Makintosh. 1) suv o'tkazmaydigan rezinalangan gazlamadan tayyorlangan palto yoki plash. Unga shodlan kimyochisi Ch. Makintoshning (1830-y.y.) nomi berilgan. 2) to'g'ri siluetli, qaytarma yoqali, ortbo'lagi shlitsali, yashirin taqilmali, yangi reglan bichimli qiya qirqma listochka cho'ntakli yengil palto.

Dafkot (daffl-kout) –qalin jun gazlamadan tikilgan kapyushonli, taqilmasi tayoqchasimon yog'och tugmali, shnur yoki charim izmali nimpalto. Unga belgiyaning Dyuffel shahri nomi berilgan, chunki u yerda shu palto uchun gazlama ishlab chiqarilgan. Avval daffkotni Angliyada ovga chiqqanda kiyishga. Ikkinchi jahon

ururshida esa Britaniya qirollikflotining dengizchilari kiyishgan. Keyin bu bolalar, ayollar va erkaklar ustki kiyimining klassik shakliga aylandi.

Norflok-uzunligi bo'ksagacha, belidabelbog' tikilgan. Ort bo'lagida ikkita taxlamali, ko'kragi va bo'ksasi qoplama cho'ntakli ovga kiyishga mo'ljallangan kurtka. Bu kurtkaga Norflokning nomi berilgan.

Spenser-uzunligi belgacha bo'lgan jaket yoki kalta kurtka. Bu kiyim 1790-yillarda Angliyada paydo bo'lgan. Lord Spenser frakninguzun etagini qiraib, bu kiyimnimodaga kiritdi. Shu bois unga lord Spenser nomi berilgan.

Kardigan-yoqa va laskansiz, oval yoki "V" simon yoqa o'mizli, uzun, to'g'ri shaklli jaket. Qirim urushi davrida moda kirgan, unga graf Kardiganning nomi berilgan.

Apash-yoqasi ochiq ko'ylak. Modaga birinchi jahon urushi vaqtida kirib kelgan. Bunday ko'ykalni galstuksiz Parijning bezori apashlari (Shimoliy amerikalik hindular apache qabilasiga bag'ishlab) kiyishgan.

Bananlar-bo'ksasi keng va t'pigi tor shim (banan shaklini eslatadi). Modaga 1980-yillarda Dj Armani va Dj. Versachi tomonidan kiritilgan.

Jinsilar-jinsi gazlamasidan turli shaklda va uzunlikda, har xil bezatilgan shimlar. Bu kiyimlarni 1960-yillarda rasmiy modaga qarshi demokratiya timsoli xippilar kiyishgan. Ular 1972-yilda "jins uslubi"ni hosil qilib ommabop modaga aylantirganlar.

Amerikalik Elios Xou o'z tikuv mashinasini Uolter Xant mashinasini takomillashtirish asosida yaratdi va patent olishiga muvoffaq bo'ladi. Shuning uchun Elios Xou tikuv mashinasining otasi deb hisoblanadi. Lekin bu mashinada ishlash ancha noqulay bo'lib, gazlama vertikal, igna gorizontalar harakatlanar edi. Elios Xouning mashinasi avvalgidan ko'ra pishiqroq va puxtaroq edi.

XIX asrda Isak Zinger tikuv mashinalar ustida uzoq yillar ishlab, o'zining qulay va chidamli mukammal mashinasini yaratdi. "Zinger" nomi bilan mashinalar ishlab chiqardi. Shu davrda (1850-77 yil) u o'zining firmasini ham tashkil qildi va boshqa davlatlarda tarmoqlarini ochdi.

Rossiyaning Podolsk shahridagi ustaxonada Zinger mashinalarining detallari keltirib yig'ildi. Keyinchalik bu ustaxona Podolsk mexanika zavodiga aylantirilib Zinger mashinalari asosida Podolsk mashinasi ishlab chiqarila boshlandi.

Toshkent To'qimachilik va yengil sanoati instituti olimlari tomonidan ikki ipli zanjirsimon baxiyali "Zarif" tikuv mashinasi yaratilgan bo'lib, muallif ismi bilan ataladi.

Hozirgi paytda bu mashina uchun Amerika, Polsha, Kanada, Rossiya va O'zbekiston davlatlari tomonidan patent berilgan va "Dyurkopp" (Germaniya) firmasida ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

Tolalarning inson hayotidagi o'rnini inkor qilib bo'lmaydi. Tolalar birinchi bo'lib kim tomonidan yaratilgan va qachon olingan? Bunday savol tug'ilishi tabiiy, javobi oddiy. Birinchi bo'lib tolalarni tabiat yaratgan va bu yaratuvchanlik ishi bilan ona –tabiatimiz bir necha milliard yillardan beri shug'ullanib kelmoqda. Shuning uchun tabiatda mavjud tolalar tabiiy tolalar deyiladi.

To'qimachilik sanoatida yirik gulli gazlamalar to'qish uchun jakkard mashinalardan foydalaniladi. Bu mashinada dasturxonlar, choyshablar, gobelenlar, portret, peysaj, gilamlar to'qiladi. Gul naqshi to'qish jarayonida tushirilib to'qilishi bilan bosqa to'quv mashinalardan ajralib turadi. Mashina 1808 yili Fransiyaning Leon shahrida J.M. Jakkard tomonidan ixtiro qilinganligi uchun uning nomi bilan yuritiladi.

Ko'hna Turon zaminimiz ham boy to'qimachilik an'alariga ega. Qadimda o'lchov asboblari bo'lmagan davrlarda matolar qo'lda o'lchangan. O'ng yelkadan chap qo'l barmoqlarigacha bo'lgan uzunlik bir gaz (80 sm) deyilgan. Shu tarzda gazlab o'lchangan mato gazlama (gaz+la+moq) deyilgan

Kashmer-ko'ylakli jun, yarim jun sidirg'a gazlama, dastlab Kashmirda to'qilgan. Kashmir viloyatiday nafis va go'zal bu matoga shu hudud nomi berilgan.

Gobelen-aka-uka Gobelenlarning Parijdagi manufakturasida ishlab chiqarilgan tuksiz gilam.

Mitkal-yupqa ip gazlama, arabcha og'irlik birligidan olingan.

Muslin-yupqa ip gazlama, Mesopotamiyadagi Mosil shahri nomidan olingan.

Satin-yupqa zich gazlamalar, Xitoy porti Tsetung nomidan olingan.

Siluet-XVIII asr fransuz arbobi nomidan kelib chiqqan. Kishi, hayvon, qush narsalarning tashqi soyasiga o'xshatib bir rangda ishlangan tasvir. XVIII asrdan boshlab Yevropada rivojlangan. Kiyim shaklining tekislikka tushirilgan eng ifodali proeksiyasi kostumning "silueti" (bichimi) deb ataladi.

Muxtasar qilib aytganda, turmushimizda bunday misollar juda ko'p uchraydi.

Siz ham atrofingizga bir qarang-chi, o'z kasbingiz va faoliyatingizga oid qanday toponimik nomlar bormikan?

### Foydalangan adabiyotlar

1. G.K.Xasanboeva, M.SH.SHomansurova "Maxsus kompozitsiya", Toshkent, "Yagi asr avlodi" 2007 y.
2. Qulijonova G.K., S.S.Musaev "Yengilsanoat mahsulotlaritexnologiyasi". Toshkent 2002y.
3. Q.M.Abdullayeva, N.S.Gaipova, M.A.Gafurova, Tikuv buyumlarini loyihalash, modellash va badiiy bezash, "Noshir nashriyoti" Toshkent-20016 y.
4. T.A.Ochilov, B.B.Axmedov, S.SH.Tashpulatov "Tikuvchilik materialshunosligi" T, "SHarq" nashriyoti, 2007-y.

### Internet manbalari

1. [www.textile-press.ru](http://www.textile-press.ru)
5. [www.afina.uz](http://www.afina.uz)
6. [www.titli.uz](http://www.titli.uz)
7. [www.mexnat.uz](http://www.mexnat.uz)
8. [www.uzstudent.uz](http://www.uzstudent.uz)